

## BUXORO VILOYATINING TUPROQLARI TAVSIFI

*Asadova Manzura Axatovna – tayanch doktorant .  
TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.  
asadovam755@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoro viloyatda keng tarqalgan sug`oriladigan o`tloqi allyuvial, sur tusli qo`ng`ir, o`tloqi- cho`l, va toshloq tuproqlarning mexanik tarkibi bo`yicha tahlillar olib borish katta amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tuproqlar o`zining murakkab mexanik tarkibga ega. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida sug`oriladigan tuproqlarining tarkibining tahlilli izohlangan.

**Kalit so`zlar:** tuproq tarkibi, zichligi, qattiqligi, g`ovakligi unumдорлигі .

Buxoro viloyatida sug`oriladigan ekin maydonlari asosan bir biridan farqlanuvchi 3 ta asosiy vohadan iborat bo`lib, bular o`ziga xos tabiiy xususiyatlarga egadir. Sahro mintaqasining tuprog'i asosan qadimdan o`zlashtirilib, sug`orilib dehqonchilik qilib kelinayotgan o`tloqi allyuvial o`tloqi sahro va o`tloq taqir tuproqlarni tashkil qiladi. Bu tuproqlarning mexanik tarkibi yengil tuproq qavati bilan birgalikda qum qumoq va og`ir soz tuproqlardan tashkil topgan. Buxoro vohasining tuproqlarini mexanik tarkibi bo`yicha tahlil qilganda : og`ir tuproqli loyli tuproqdan iborat bo`lib, kollektor (zaxkash ) larda yaqin joylashgan yerlari esa o`rta soz tuproqlarni tashkil qiladi. Sug`oriladigan yer maydonlarining 36.2 dan 74 %gacha hosil qismi asosan o`rta qumoqdan iborat bo`lib, qolgan qismi yengil soz va qumoq yerlardir. Mexanik jixatdan og`ir tuproqni tashkil qiladigan hududlarga : Kogon, Vobkent, Buxoro tumanlari kirib, 8.0 -29 % dan qolgan tuproqlari esa 3.0 – 12.5 % ni tashkil etadi. Yengil va soz tuproqli yerlar asosan Jomdor, Shofirkon, Romitan tumanlarida bo`lib qum va qumloq yerlar asosan Peshko' va Shofirkon tumanlarida joylashgan. Buxoro vohasidagi yerlarning mexanikaviy holati, yer osti sizot suvlarining joylashish chuqurligiga qarab, yuqori qismidan pastga qarab o`g`irlashib boradi. Qorako'l vohasida tuproqning ko`p qismi yengil, o`rta soz tuproqli qatlamlari bo`lib, 25 % sug`oriladigan yer maydoning 0 – 80, 80 – 100 sm qatlamlarining tuzilishi bir –biridan o`xshash qatlamlardan iborat. Kulrang tusli tuproqlar bir xil mexanik tarkibli bo`lib, sahro qismida joylashgan tuproqlar esa bir necha qatlamdan iborat. Umuman xulosa qilib aytganda viloyatimiz tuproqining mexanik tarkibi katta va o`rta fraksiyali zarrachalar bilan almashinib turishligi sababli suv va fizik xossalari, yaxshi holatda bo`lib, natijada o'simliklarning normal o'sishi, hosil olishda qulay sharoit yaratadi.

**Buxoro viloyati tuproqlarining turlari (1-rasm )**

No	Tuproq turi	Maydoni, ming ga	%
1.	O'tloqi-allyuvial tuproqlar	205,5	74,7
2.	Taqir-o'tloqi tuproqlar	49,3	17,9
3.	Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar	11,2	4,1
4.	O'tloqi-qumoq tuproqlar	0,1	0,2

Keltirilgan jadval ma'lumotlarini ko'rsatishicha viloyatning sug'oriladigan yerlarini 74,7% o'tloqi-allyuvial tuproqlaridan iborat. Ushbu tuproq turlari viloyatning Vobkent, Buxoro, Peshko', Qorako'l, Olot tumanlarida keng tarqalgan. Bu tuproqlar qadimdan sug'oriladigan, madaniylashgan unumdar tuproqlar bo'lib, haydalma qatlama (0-40 sm) tarkibidagi gumus miqdori 0,86-1,6% ni, umumiylazot 0,06-0,12% ni, umumiylfosfor 0,11-0,18% ni tashkil qiladi. Taqir-o'tloqi tuproqlar tarqalish maydoni bo'yicha o'tloqi allyuvial tuproqlardan keyin ikkinchi o'rinda turib, maydoni 49,3 ming getktarni tashkil qiladi. Bu tuproqlar viloyatning relef bo'yicha yuqori qismlarini o'z ichiga oladi, shuningdek o'tloqi-allyuvial tuproqlar tarkibida gumus miqdori 0,50-0,80 % ni, umumiylazot 0,04-0,8% fosfor esa 0,8-0,14% ni tashkil etadi. Viloyat tuproqlarining mexanik tarkibi har xil bo'lib, tuproq turlari bo'yicha 36,2-74,0% i o'rta mexanik tarkiblidir (asosan Buxoro, Peshko', Romiton, G'ijduvon, Qorovulbozor tumanlari). Mexanik tarkibi og'ir tuproqlar nisbatan ko'proq Kogon va Vobkent tumanlarida, yengil mexanik tarkibli tuproqlar esa Shofirkon, Jondor va Qorako'l tumanlarida tarqalgan. Sug'oriladigan tuproqlarini mexanik tarkibi turli-tumanligini viloyatning boshqa tumanlarida ham kuzatish mumkin. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadi, Qorovulbozor(7371ga), Vobkent(3905ga), Kogon (2665ga), Buxoro(2414ga), hamda G'ijduvon(1879ga) tumanlarida og'ir qumoqli tuproqlar boshqa tumanlarga nisbatan birmuncha ko'p maydonlarni egallaydi. Viloyat bo'yicha o'rta va yengil qumoqli tuproqlar eng ko'p yer maydonlarini egallashi bilan birga tumanlar o'rtasida turlicha taqsimlangan, ya'ni Romitan (11535 ga), Buxoro (10300ga), G'ijduvon (10123 ga), va Vobkent (8269 ga) tumanlarida o'rta mexanik tarkibli tuproqlar Jondor (11565ga), Qorako'l (10509 ga) Olot (8963ga) , Shofirkon (7113 ga) da, qumloq va qumli mexanik tarkibli tuproqlar, Shofirkon (2972-2740ga), Jondor (1838-1852ga), Olot (1481- 2411ga), Qorako'l (1177-1830ga) tumanlarida ko'p maydonlarni egallaydi. Buxoro viloyati tuproqlarining mexanik tarkibi jihatidan turli -tumanligi bilan ajralib turadi. Tuproqlarga ishlov berishda, sug'orishda, o'g'itlashda va turli ekinlarni joylashtirishda ularning mexanik tarkibi hisobga olinganda holda tabaqalashtirilishi zarur

**Adabiyotlar ro`yxati**

1.М.А.Асадова .Ерларни баҳолаш ишларини услубий асослаш . Analytical Journal of Education and Development 14-15 b

2. М.А.Асадова. Ерларнинг мелиоратив ҳолатини баҳолаш . International scientific-online conference: Intellectual decation technologigal solutions and innovative digital tools 1-3 р

3. Асадова.М.А.Научно –методическое обоснование оценки земель. Сборник научных статей 263-265 ст